

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**AL-XORAZMIY nomidagi
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Matematika o'qitish metodikasi fanidan

**“BIRINCHI SINIF MATEMATIKA TAYANCH DASTURI (DARSLIGI)
TAHLILI”
mavzusi bo'yicha laboratoriya ishlanmasi**

Tuzuvchi: E.Xudoynazarov

Urganch – 2010 y.

Laboratoriya ish №1 3 kurs BT va STI

5-semestr

Mavzu: Birinchi sinf matematika tayanch dasturi (darsligi) tahlili.

Maqsad: Birinchi sinf matematika tayanch dastur bo'yicha o'rganish kerak bo'lgan malaka va ko'nikmalarni aniqlash.

Jihoz: Birinchi sinf matematika darsligi, o'qituvchi uchun birinchi sinf matematika metodik qo'llanma, tayanch dastur va DTS, birinchi sinf matematikadan bosma asosli daftar.

Natija: Birinchi sinf matematika har bir mavzu, choraklik, yarim yillik, yillik matematikadan egallanishi kerak bo'lgan malaka va ko'nikmalarni aniqlash.

Narsalarning xossalari geometrik shakllar (10 soat)

1 dan 5 gacha bo'lgan sonlar (18 soat)

6 dan 10 gacha bo'lgan sonlar. 0 soni. Raqamlash (18 soat)

10 ichida qo'shish va ayirish. Geometrik shakllar va kattaliklar. (52 soat)

Yuzlik. 22 dan 100 gacha bo'lgan sonlar. Raqamlash. Geometrik shakllar. (20 soat)

100 ichida qo'shish va ayirish. Geometrik shakllar va kattaliklar. (29 soat)

O'quvchilar yil oxirida quyidagilarni bilishi kerak.

- atamalar: yig'indi, qo'shish, ayirish, ayirma, kam, ortiq, ... ta kam, ... ta ortiq, nuqta, kesma, doira, kvadrat, uchburchak, beshburchak, uzunlik, santimetr, detsimetr.
- ishora (belgi) va belgilashlar: -, +, =, sm, dm, m, litr, kg, 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9.
- bir xonali sonlarni qo'shish jadvali (10 ichida) mos ravishdagi ayirish hollari (avtomatizm darajasiga yetkazish).

Uddalay olishlari kerak.

- 0 dan 100 gacha bo'lgan sonlarni o'qish va yozish;
- qo'shishning asosiy xossalarini bilish va undan hisoblashlarda foydalanish;
- 100 ichidagi o'nlikdan o'tmasdan sonlarni qo'shish va ayirish xossalarini qo'llash;
- kesma uzunligini chizg'ich yordamida o'lchash, kesma uzunligini santimetrlarda, detsimetrlarda, detsimetr va santimetrlarda yozish;
- chizg'ich yordamida berilgan uzunlikdagi kesmani chizish;
- rasmlardan, modellardan, atrofdagi narsalardan eng sodda geometrik shakllar – uchburchak, doira, kvadrat, beshburchak, kesmalarni topa olish. Bu shakllarni bir-biridan farqlash;
- qo'shish va ayirishga doir soda arifmetik masalalarni yechish.

Yuqorida uddalay olishi kerak bo'lgan tushunchalar qanday shaklda amalga oshiriladi.

Adaboyotlar:

1. 1-sinf matematika darsligi.
2. 2-sinf matematika darsligiga metodik qo'llanma.
3. DTS, tayanch dastur.
4. Bosma asosli daftar (1-sinf)
5. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent. 2002 yil.

Laboratoriya ish №4 , 3 kurs BT va STI

Mavzu: Boshlahg'ich sinflarda matematika o'qitishni tashkil qilish formalari.

Maqsad: Dars turlarini bir – birinidan ajratish va ular har biri uchun konspekt namunalarini tayyorlash.

Jihoz: Darslik va metodik qo'llanmalar, konspekt namunalari.

Natija: Darsning turlari bo'yicha konspekt namunalarini tayyorlash.

Ishning mazmuni:

Dars mazmuni quyidagilar:

- 1) Dars programmaga mos kelishi va uning maqsadlaridan kelib chiqishi kerak. Nazariy bilimlarni amaliy malaka va ko'nikmalar bilan tarkibiy birlikda foydalanish programmaning yetakchu printsipidir.
- 2) Darsda qilinadigan eng muhim talab- g'oyaviylik va milliy e'toqodni tarbiyalashdir.
- 3) Dars turmush bilan, shaxsiy tajriba bilan, amaliyot bilan bog'liq bo'lishi kerak.
- 4) Dars materiali o'quvchilarga tushunarli va ularning kuchi yetadigan bo'lishi kerak. Dars davomida faoliyatning har xil turlaridan to'g'ri foydalanish nazarda tutiladi. Matematika darslarida bajariladigan asosiy ish turlari quyidagilardan iborat:
 - a) og'zaki mashqlar.
 - b) yozma hisobotlar va masalalar yechish.
 - c) yasashga va o'lchashga doir mashqlar.

O'qitishda bilish va ijodiy faoliyatlarni aktivlashtirish usullari namunalari.

- 1) Har bir o'quvchi ijodiy ishda mustaqil ishning maksimal ulushini ta'minlash.
- 2) O'qitishda individual va kollektiv formalaridan optimal ravishda birlashtirib, foydalanishning usullari bilan birga maxsus tarqatma materiallardan foydalanish.
- 3) Faoliyat turlari bilan o'rganilayotgan o'quv materiali orasida to'g'ri munosabatni ta'minlash.
- 4) Darsning har xil bosqichlarida programmashtirilgan va problemali ta'lim elementlaridan foydalanish.
- 5) Darsda har xil ko'rsatma va ekran vositalaridan foydalanish.
- 6) Darsda har xil musobaqalar o'tkazish, bu esa o'qitish mazmuni va xususiyatlariga mos kelmog'i kerak.

Dars rejasi odatda ixtiyoriy tuziladi, lekin unda quyidagi elementlar o'z aksini topmog'i kerak.

- 1) Dars nomeri va o'tkazilish vaqti.
- 2) Dars mavzusining nomi.
- 3) Dars maqsadlari ta'limiy, tarbiyaviy va amaliy (rivojlantiruvchi).
- 4) Dars jihozi.
- 5) Dars strukturasi, asosiy qismlari, yoki bosqichlari, ularning ketma-ketligi va o'tkazilishi uchun ketadigan vaqtini taxminiy belgilash.
- 6) Yangi materialni o'rganishga oid ishlar.

- 7) Darsning har bir qismida bajariladigan o'quv ishining metod va usullari.
- 8) Dars davomida so'ralishi kerak bo'lgan o'quvchilar familiyalari.
- 9) Uy vazifasi.
Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan dars turlari.
 - 1) Murakkab (kombinatsiya qilingan darslar)
 - 2) Yangi materialni o'rganish darsi.
 - 3) Bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni mustahkamlash darslari.
 - 4) O'tilganlarni takrorlash darslari.
 - 5) Bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni tekshirish va hisobga olish darslari.
 - 6) Problemali dars.

Laboratoriya ish №1 , 3 kurs BT va STI

6-semestr

Mavzu: Bolalarning maktabgacha davrdagi matematik tayyorgarligini o'rganish metodikasi.

Maqsad: Bolalarning maktabgacha tayyorgarligini guruhlariga ajratib o'rganish. Tayyorgarlik darajasi bo'yicha jadval, sxemani tayyorlash.

Vosita: Har xil predmet gruppasi, sinf xonasidagi inventarlar. O'qituvchi uchun bolalarga yo'naltiruvchi savollar ro'xati.

Natija: Tayyorgarlik davrining asosiy vazifasi nomerlashga o'rgatishga o'tish uchun zarur bo'ladigan bilimlar, malaka va ko'nikmalarni aniqlash, ularni to'ldirish va sistemalashtirishdan iborat.

Tayyorgarlik davrida ushbu ko'rinishdagi mashqlar bajariladi:

1. Predmetlar, tovushlar va harakatlar sanash.

Birinchi mashqlar sinfda mavjud bo'lgan predmetlarni, ya'ni eshiklar, derazalar, partalar, bir qatordagi qizlar va hakazolarni sanashga doir mashqlar bo'lishi kerak. Ammo bu predmetlarni qo'lga olib, surib bo'lmaydi. Sanash uchun maydaroq narsalarda, ya'ni qalamlardan, kubchalardan, sanoq cho'plaridan foydalanish zarur. Bolalarni tovushlarni sanash bo'yicha va harakatlarni sanash bo'yicha ham mashqlar qildirish kerak. Sanoq o'tkazish protsesida bolalarni bir xil ma'lumotlarning o'zi bo'yicha imkoni bo'yicha "qancha?" so'zi bilan savollar qo'yishga mashqlar qildirish muhimdir.

Masalan, II va III qatordagi o'quvchilarga I qatordagi o'tirgan o'quvchilarga diqqat bilan qarab, "qancha?" so'zi bilan imkoni boricha ko'proq savol berishni taklif qilish mumkin.

Shuningdek, biz predmetlarni o'ngdan chapga, chapdan o'nga, pastdan yuqoriga qarab sanashimiz bilan sanoq natijasi o'zgarmaydi. Bunda asosiy narsa bittasi sanamasdan qoldirmaslik.

2. Ikkita to'plamni ularni hosil qilgan elementlarning soni bo'yicha taqqoslash va tenglashtirish prosesi.

Bunda quyidagi mashqlar o'rinli.

a) Partaga bir qancha doirachani qo'ying. Doirachalarni sanamasdan turib, ikki kvadrat qo'ying. Buni qanday qilish mumkin.

b) Paketda yong'oqlar va konfetlar bor. Paketda yong'oqlar yoki konfetlar ko'pligini qanday bilish mumkin.

3. Tartib munosabatlari va sonlarning tartib munosabatlari.

Sonlarning tartib munosabatlarini qarashda quyidagilarni nazarda tutish kerak. Agar natural sonning miqdoriy qiymati qaralayotgan to'plamda nechta element bor, degan savolga javob-sanashda o'z tadbqiqini topsa, ya'ni predmetlar qatorida tartib bo'yicha qo'yiladi.

4. Qo'shish va ayirish amallarini o'rganishga tayyorlash. Bolalarni qo'shish va ayirish amallarini o'rganishga tayyorlash maqsadida berilgan 2 to'plamni birlashtirishga doir va to'plam qismini ajrarishga doir mashqlar bajarish kerak. Daftaringining bir satridan umumiy tomonlarga ega bo'lgan 5ta katak bo'yang va bo'yalmagan kataklar nechta?

5. Raqamlarni yozishga tayyorlash.

U yoki bu son qanday hosil qilinishi mumkin?

Bunda quyidagidek mashqlar harakterlidir: partaga 2ta ko'k doiracha qo'ying, ularga bitta doirachani yaqinlashtiring. Doirachalar qancha bo'ladi? 3 sonini qanday hosil qildik. Kartochkalar yordamida misollar yozing.

Bolalar oldin bosma raqamlar bilan taishadilar. Ular predmetlarning tegishli to'plamlari yoniga o'rnatib qo'yiladi. Qaralayotgan songa mos keluvchi raqamning yozilishi shu son kiritilayotgan darsda beriladi.